

**FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI NEMIS TILIDAN O'ZBEK TILIGA
TARJIMA QILISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR**

Latipova Dilfuza Amrillazevna, O'zDJTU
Tarjimonlik fakulteti Roman-german tillari
tarjimashunosligi kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: ldilfuza313@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola frazeologik birliklarni nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish masalalariga bag'ishlanadi. Maqolada frazeologik birliklarning tilda tutgan o'rni yoritilib har ikki millatning madaniyati, urf-odatlari va mentalitetini hisobga olish muhimligi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *idioma, maqol, matal, frazeologik birliklar, tarjima, ma'no, xalq, birlik.*

Аннотация: Данная статья посвящена переводу фразеологизмов с немецкого на узбекский язык. В статье освещается роль фразеологизмов в языке и подчеркивается важность учета культуры, обычаяев и ментальитета обоих народов.

Annotation: This article is devoted to the translation of phraseological units from German into Uzbek. The article highlights the role of phraseological units in the language and emphasizes the importance of taking into account the culture, customs and mentality of both peoples.

Mamlakatimizda chet tilini bilishga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Chunki chet tilini o'rganish turli madaniyatlar va turfa fikrlar bilan tanishish uchun keng imkoniyatlar ko'lagini ochib beradi. Chet tillarini o'z ona tilimiz bilan solishtirgan holatda, ikki millat qadriyatlarini o'zaro taqqoslab o'rganish esa juda samarali usullardan sanaladi. Bu ayniqsa, frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida qo'l keladi. Jaloliddin Rumiy hazratlari ta'kidlaganidek, "Har til - ko'ngilning pardasidir. Parda qimirladimi, sirlar ochiladi"

Demak, tilning har qanday dolzarb ko'ringan muammolariga ham yechim topishning yo'llari mavjud. To'g'ri, nemis tilidan o'zbek tiliga turli frazeologik birliklarni tarjima qilishda tarjima orqali ifodalangan muvofiq jumla va frazeologik birliklar o'z asl qiyofasini yo'qotishi mumkin. Lekin yana bir muhim jihat shundaki, bizda maqol va matallarni o'rganishga bo'lgan e'tibor yetarlicha emas. Aslida, xalq tilining boyligi frazeologik qatlamning yetukligi, rang-barang jumla va oz so'zlar ishtirokida ko'p ma'nolarni ifodalash bilan o'lchanadi. Negaki, odamlarning hayot muammolari, qayg'usi-yu quvonchi, mehnati, mag'lubiyat va g'alabasi ibora, maqol, matallarda o'z aksini topgan.

Darhaqiqat, turli tillarda shakl va ma'no jihatdan bir xil bo'lgan maqol, matal va iboralar juda ko'p uchraydi. Masalan: o'zbek tilida faol qo'llaniladigan "*Butun vujudi qulinqqa aylanmoq*" idiomasining nemis tilidagi ayni muqobil varianti mavjud, "ganz

Ohr sein”. Birgina “Vaqt” bilan bog‘liq bo‘lgan turg‘un birikmalarni misol tariqasida keltirib o‘tmoqchiman: *Zeit ist Geld, Zeit läuft oder fliesst*; bu birikmalar vaqtning suvdek tez oqib ketishi, ya’ni bir so‘z bilan aytganda vaqtning tez o‘tib ketishini anglatadi. Shu kabi turg‘un birikma, matal, idioma, iboralarining tilimizdagi muqobil variantlarini topish qiyinchilik tug‘dirmasada, ba’zi birlarini ayni bizning mentalitet va qadriyatlarimizga mos va xos keladigan variantlarini topish tarjimondan yetuk bilim, tafakkur va chuqr izlanishlarni talab qiladi.

Nemis tili idiomalarga boy til hisoblanadi. Idiomalar tilda uzoq vaqtdan beri mavjud bo‘lgan iboralar. Ularni so‘z, birlik sifatida tahlil qilib bo‘lmaydi. Rudi Konradning fikricha, idiomalar morfemaga o‘xhash tuzilmalar bo‘lib, ularning ma’nolarini so‘zma-so‘z talqin qilishdan xulosa qilib bo‘lmaydi, ya’ni umumiy ma’no idiomalar tarkibida alohida ta’kidlangan so‘zlarning ma’nosiga bog‘liq emas. Masalan: “*Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi*” (*hafsalasi pir bo‘ldi*), “*Tepa sochi tikka bo‘ldi*” (*jahli chiqdi*) va “*do ppisini osmonga otdi*” yoki “*Boshi ko‘kk ayetdi*” (*hursand bo‘ldi*). Nemis tilida ham bu kabi misollar talaygina va ularni o‘zbek tiliga tarjima qilishdagi qiyinchilik hamda muammolar tarjima jarayonida tarjimondan o‘ta sinchkovlikni talab qiladi. Masalan: “*Schweinhaben*” (*baxtli bo‘lmoq*); „*Warten und Tee trinken*“ – *sichausruhen, im Bettbleiben* (*sog‘ayish uchun yotoq rejimida bo‘lmoq*); “*Die Stundeschlaegt*” – (1.ma’nosi: *vaqt tugadi*. 2. ma’nosi: *kimningdir umri tugadi, vafot etdi*).

Yana shunday iboralar borki, ularning muqobili tarjima qilinayotgan til uchun butkul yot bo‘lishi mumkin, ya’ni tarjimon bu kabi frazeologik birlikka bir yoki ikki so‘zdan iborat ekvivalent topolmasdan faqatgina mazmunni kengaytirib yoritish bilan kifoyalanishi mumkin bo‘lgan holatlar ham ko‘p uchraydi. Bunga nafaqat nemis tili, balki o‘zbek tilida ham ko‘plab misollar keltirish mumkin: „Ichini kemirmoq“, „Ich-etini yemoq“, frazemalari ruhiyatda kuchli darajada bezotalik borligidan darak beradi.

„*vahimaga tushmoq yoki judayam bir narsani bo‘rttirmoq*“ iborasi esa: “*pashshadan fil yasamoq*“ birikmasi bilan beriladi. Mushkul vaziyatda qolmoq, mushkul vazifani bajarish – „*Somonni orasidan igna qidirmoq*“ hamda buning antonimi bajarish uchun oson diyeish uchun „*Xamirdan qil sug‘urgandek*“ deya ifodalanadi. Bu kabi birikmalarining aynan mos variantini nemis tilida toppish mushkul. Xuddi shunday, nemis tilida uchraydigan frazeologizmlarni tarjima qilish jarayonida ham shu kabi holatlar kuzatiladi. Bu nafaqat ma’lum bir halqning ushbu birikmani nima bilan ifodalashi balki shu iboraning yaratilishi bilan ham bog‘liq.

Frazeologik birikmalar kuchli ma’no, bo‘yoq dorlik, obrazli ifodalar orqali nutqni faol vositaga aylantirib, asosan badiiy adabiyotda va publisistikada o‘tkir va ishonarli tasviriy vositalarni yaratishga imkon beradi. Idiomalar qahramon obrazini tasvirlashda, personajlar nutqini shaxsiylashtirishda voqealarning emotsional tasvirini yaratishda kuchli vositadir. Idiomalarni nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishdagi qiyinchiliklar deyarli barcha tarjimonlar uchun alohida muarakkablik darajasiga ega

bo‘lgan yo‘nalishdir. Chunki ko‘p holatlarda idioma tarkibiy qismlarini bir tildan boshqa tilga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilib bo‘lmaydi.

Garchi frazeologizmlar ona tili bo‘lmaqdan uchun qiyinchilik tug‘dirishi mumkin bo‘lsa-da, ularni o‘rganish tarjimon va shu soha ixlosmandlari uchun qiziqarli. Frazeologizmlar oldingi davrlardagi juda ko‘p voqealari, holat va ma’lum vaziyatlardan darak beradi.

XULOSA: Frazeologizmlar dunyo, biz yashab turgan borliq va jamiyat haqida madaniy ma’lumot tashuvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Shuning uchun ham frazeologik birliklar o‘zida xalq mentaliteti va madaniyatini saqlavchi "hikmatlar xazinasi" bo‘lib, ular avloddan avlodga meros qilib qoldiriladi.

Frazeologik birliklarni turli jabhalarda o‘rganish tadqiqotchilarga ularning turli xususiyatlarini farqlash va tilning frazeologik zaxirasi boyligini isbotlash imkonini beradi. Bu sohadagi tadqiqot natijalarini, ayniqsa, doktorlik dissertatsiyalari katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, aynan shu soha taraqqiyoti uchun yangi istiqbollarni ochadi.

Adabiyotlar ro‘yxati ro‘yxati:

1. "Hikmatlar, aforizmlar to‘plami" <https://hikmatlar.uz/quote/843>
2. Hans Shemann Deutsche Idiomatic. Shtutgart, Drezden, 1993. Chernischewa II Feste Wortkomplex des Deutschen in Sprache und Rede. Moskva, 1980 yil. Iskos A., Lenkova A. Deutsche Lexicology. Leningrad, 1970 yil. Imyaminova Sh. nemis leksikologiya (matn ma’ruzalar). -T.: Universitet, 2000 yil.
3. Reformatskiy A.A. Tilshunoslikka kirish. Moskva: Aspect Press, 2004,
4. Rudi Konrad. Lexikon der sprachwissenschaftliche Termini, VEB. Bibliografiya Institut, Leyptsig, 1988.
5. 165. Axmanova O.S. Lingvistik atamalar lug‘ati. M. Entsiklopediya, 1969,
6. Annelies Gertsog, Artur Mishel, Gerbert Ridel. Deutsche idiomatische Wendungen mo‘yna Oslander. VEB, Verlag Enzyklopädie, Leyptsig, 1976 yil.